

HAJVCHILIK POETIKASIDA FOLKLORIZM FENOMENI (Habib Siddiqning “Tuya” hikoyasi misolida)

Baxriddinova Muazzamxon Fazlitdin qizi,

*Andijon davlat universiteti o‘zbek adabiyoti ixtisosligi
tayanch doktoranti.*

G-mail: muazambaxriddinova@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada yozuvchi Habib Siddiqning “Tuya” hikoyasi tahlil qilinadi. Hikoyada oddiy folklorizm hodisasi chuqur o‘rganiladi. Yozuvchi keltirgan maqol, ibora, laqablarning hikoya kontekstidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Laqablar ham xalq og‘zaki ijodi namunasi ekanligi yuzasidan tahlillar keltirilib, xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: hikoya, xalq og‘zaki ijodi, folklorizm, maqol, ibora, laqab, hajv.

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ «Верблюд» писателя Хабиба Сиддика. В рассказе глубоко исследуется явление простого фольклора. Обсуждается значение пословиц, поговорок и прозвищ, используемых автором в контексте рассказа. Также проводится анализ и делаются выводы о том, что прозвища являются образцами устного народного творчества.

Ключевые слова: рассказ, фольклор, фольклоризм, пословица, фраза, прозвище, сатира.

Abstract. This article analyzes the story "The Camel" by the writer Habib Siddiq. The story explores the phenomenon of simple folklorism in depth. The article discusses the significance of the proverbs, phrases, and nicknames cited by the author in the context of the story. The article also analyzes the nicknames as examples of folklore and draws conclusions.

Keywords: story, folklore, folklorism, proverb, idiom, nickname, satire.

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi, uning o‘lmas qahramonlari, badiiy ijodkorlik tajribasi yozma adabiyotning vujudga kelishi va taraqqiy etishi uchun zamin, boy ma’naviy-badiiy manba, mahorat maktabi bo‘ldi. Shu ma’noda xalq ijodidan bahramand bo‘lmagan, uning ma’naviy boyligidan oziqlanmagan birorta shoir yoki yozuvchini tasavvur etib bo‘lmaydi.

So‘z san’atkorlarining folklor asarlaridan ijodiy foydalanishi yozma adabiyotning taraqqiyotiga, shuning barobarida, xalq asarlarining saqlanib qolishi va yangicha umr ko‘rishiga xizmat qiladi. Adabiyotimiz tarixidagi barcha ijodkorlar o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanganlar va foydalanib kelmoqdalar. Ana shunday xalq og‘zaki ijodi buloqlaridan suv ichib kelayotgan, o‘z asarlarida folklor namunalaridan unumli foydalanib kelayotgan ijodkorlardan biri andijonlik hajvchi yozuvchi Habib Siddiqdir. Adibni kitobxonlar asosan hajviy asarlari, hajvialari, kichik hajviy lavhalari orqali yaxshi taniydilar. Yozuvchi asarlariga nazar tashlasangiz, ularda xalq og‘zaki ijodi namunalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki qayta ishlov berilgan holda foydalanilganiga guvoh bo‘lasiz. Yozuvchi hikoyalari va butun ijodi ko‘zdan kechirilganda, adibning xalq og‘zaki ijodini chuqur o‘zlashtirgani, o‘z ijodida ulardan mo‘l-ko‘l foydalanganini anglash mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunoslikda badiiy matnda xalq og‘zaki ijodi unsurlarining qo‘llanilishi va ularning transformatsiyasi **folklorizm hodisasi** sifatida o‘rganiladi. O‘zbek adabiyotshunosligida folklorizm muammolari, uning turlari va tasnifiy mezonlari taniqli olimlar B. Sarimsoqov, I. Yormatov, L. Sharipova kabi tadqiqotchilar

tomonidan tizimli o'rganilgan. Akademik ilmiy qarashlarda folklorizmlar shartli ravishda *oddiy, murakkab va analitik* turlarga ajratiladi. Habib Siddiq hikoyalari poetikasini tahlil qilishda ushbu tasnifiy mezonlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Biroq, zamonaviy hajviy hikoyalarda barqaror ibora va maqollar bilan bir qatorda, xalqona laqab qo'yish an'anasining badiiy funksiyasi adabiyotshunoslikda alohida maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan.

Habib Siddiqning "Chirog'i yoniq xonadon" kitobidan o'rin olgan "Tuya" hikoyasi xalq og'zaki ijodi namunalari bilan mohirona boyitilganki, bu hikoyaning mazmunini ochib berishda, qahramonlar xarakterini tasvirlashda qulay vosita vazifasini bajargan. "Tuya" hikoyasi yozuvchining boshqa hikoyalari kabi hajviy hikoya bo'lib, hikoyan o'qigan kitobxon yuziga behtiyor tabassum yuguradi. Hikoya hajman ixcham, 3 sahifadagina iborat. Ammo shu kichik hikoyada yozuvchi bir nechta xalq maqollari, iboralarini qo'llaydi, bu esa kitobxonda behtiyor tabassum uyg'otadi. "Tuya" hikoyasida Rahmatillo ismli yigitning institutni bitirib, ishga joylashish voqeasi hikoya qilinadi. Yozuvchi qahramonlar nutqida maqollarni qo'llash orqali ularni kitobxonga tanishtiradi, xarakterlarini ochib beradi. Hikoyadagi har bir qahramon o'z nutqida maqol qo'shib gapiradi, fikrini ifodalash uchun iboralardan foydalanadi. Bu bir tomondan xalq orasidagi odamlarning nutqi qanchalik boy ekanini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan folklorizm hodisasini yuzaga keltiradi. Adib ushbu hikoyada maqollarni asl holida, o'zgartirmasdan qo'llaydi, bu oddiy folklorizm deyiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy va poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Habib Siddiqning "Tuya" hikoyasidagi maqol, ibora va laqablar folklorizm nazariyasi asosida o'rganildi. Asardagi folklor unsurlarining qahramonlar xarakterini ochish, hajviylikni kuchaytirish hamda badiiy g'oyani ifodalashdagi o'rni tahlil qilindi. Shuningdek, hikoyada qo'llangan folklorizmlar oddiy folklorizm mezonlari asosida baholandi.

Tahlillar va natijalar. Iboralar xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlar, kuzatuvlari, hazil-mutoyibasi va donishmandligi asosida shakllangan barqaror so'z birikmalaridir. Ular avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Hozirgi kunda ham xalqimiz nutqida ko'plab iboralarni uchratish mumkin. Habib Siddiq "Tuya" hikoyasida bir nechta xalq iboralaridan foydalanadi.

Bosh qahramon yangi ishxonasiga boshliq bilan kirib, boshliq chiqib ketgan holatini quyidagicha tasvirlaydi: "Suv quygandek jim bo'lib turgan xonada boshliq chiqib ketgach, jonlanish boshlandi"[1]. Adib bu o'rinda jimlikni ifodalash uchun "Suv quygandek" iborasidan foydalanadi. Bu ibora orqali nafaqat xodimlarning holati, balki boshliqning xarakteri haqida tasavvur hosil bo'ladi. Chunki, u shunday tartib o'rnatganki, u kirishi bilan xona "suv quygandek" holatga keladi. Bu o'rinda ushbu ibora vaziyatni ifodalash uchun juda chiroyli qo'llanilgan. Fikrimizni keyingi gapda qo'llanilgan xalq maqoli yanada aniqroq dalillaydi: "Ja-a unaqamas-da endi. Haligi...nimani bori yaxshi deganlar". [2] Bu

gapda yozuvchi “Baqiroqning bori yaxshi” maqoliga ishora qilmoqda. Yuqoridagi “Suv quygandek jimjit” iborasi bilan “Baqiroqning bori yaxshi” maqoli bir-biri bilan zidlanib ma’noni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Yozuvchi bu yerda “Boshliq baqiroq odam edi” deb kitobxonga aytib o‘tirmasdan folklorizmlar vositasida ko‘rsatib beryapti. Bu esa kitobxonga alohida zavq bag‘ishlaydi, hikoya boshidanoq asar qahramonlari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Aslida yozuvchining mahorati ham shunda. Bayonchilik uslubini tanlab kitobxonni zeriktirmaydi-da, aksincha qahramonlarni voqealarni o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantirib beradi.

Keyingi o‘rinlarda ham yozuvchi xalq iboralariga murojaat qiladi. Bu safar iborani bosh qahramon nutqida uchratasiz: “Maosh olinadigan kun ham do‘ppini aylantirguncha kelib qoldi”. [3] Adib vaqt juda tez o‘tganini ifodalash uchun “do‘ppisini aylantirguncha” iborasini qo‘llaydi.

Habib Siddiq hikoya davomida yana bir nechta maqol va iboralarni keltiradi. Bu safar ham bosh qahramon Rahmatillo nutqida ibora keltiradi: “Kelsangiz-chi, xo‘jayin, - dedim ovozimni ko‘tarib. – Namuncha imillaysiz, tuya go‘shiti yeganmisiz- yo?

-Uh, qovun tushurding-ku!”[2] Xalqimizda uzoq davom etgan, cho‘zilib ketgan ishga nisbatan “Tuya go‘shiti yegan” iborasi” ishlatiladi. Bu o‘rinda Rahmatillo boshlig‘i shoshilmay, sekin yurib kelayotgan vaziyatda shu iborani ishlatadi. Hamkasblari uning bu gapiga javoban ham ibora qo‘llaydilar: “Qovun tushirding-ku”. Iboraga javoban ibora bilan javob berish juda chiroyli suhbatni yuzaga keltiradi. Adib hikoyalarida bu kabi holatlarni ko‘plab uchratish mumkin.

“Tuya” hikoyasida yana bir xalq og‘zaki ijosi namunasi- laqablarni uchratish mumkin. Muallif xalqimiz orasida keng tarqalgan-laqab qo‘yish an‘anasini hikoyada mohirona ko‘rsati beradi. Hikoyaning nomi ham aslida korxon boshlig‘ining laqabi, ya’ni “Tuya”.

Laqab — kishining tashqi ko‘rinishi, xarakteri, kasbi, odati yoki hayotidagi muhim bir xususiyatiga asoslanib xalq tomonidan berilgan nomdir. Laqablar ko‘pincha: xalq kuzatuvchanligi, hazil-mutoyiba, obrazli tafakkur, ijtimoiy baholash natijasida yuzaga keladi va og‘zaki ravishda keng tarqaladi. Laqablar shaxsning biror belgisini ifodalaydi va xalqning ijodiy nomlash an‘analarini aks ettiradi. Laqablar odatda xalq og‘zaki ijodining mustaqil janri sifatida tasniflanmaydi. Ammo ular xalq tilining boyligi, obrazli ifoda vositasi, etnolingvistik hodisa, folklor unsuri sifatida o‘rganiladi. Laqablarni xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq til hodisasi sifatida qo‘shish mumkin. Ular mustaqil folklor janri bo‘lmas-da, xalqning kuzatuvchanligi, hazilkashligi va obrazli tafakkurining mahsuli sifatida xalq og‘zaki ijodining tarkibiy unsurlaridan biri hisoblanadi. Xulosa qilish mumkinki, laqablarni ham xalq og‘zaki ijodi namunalari safiga kiritar ekanmiz, yozma adabiyotda laqablardan foydalanish folklorizm hodisasini yuzaga keltiradi deb ayta olamiz. “Tuya” hikoyasi esa boshidan oxirigacha laqablar haqida desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Yozuvchi jamiyatimizda keng tarqalgan bu “an‘ana”ni chiroyli tarzda

ta'riflaydi. Yuqorida ta'kidlaganimzdek, Rahmatilla korxonaga ishga keladi va bu yerda har bir ishchining laqabi borligiga guvoh bo'ladi: "Hayriyat-e, shugina gap ekan. Yana baqiriq-chaqiriq boshlanadimi deb yurakni hovuchlab turuvdik.

-Ja-a unaqamas-da, endi. Haligi...nimani bori yaxshi deganlar.

-Maqtozni ham ja kelishtirvordi-yu, Qo'shoqvoy aka. Ichingizdan pishgan odamsiz, yantoq-pantoqdan qarashvordingizmi, deymanda-a?

-Shogirdingiz ham o'zingizday yuvosh ko'rinadi.

-Namuncha sayradinlar-a? Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov deganday, yo senlarning ko'ngling ham yantoq tilab qoldimi?".[3] Bu suhbatdan ko'rinadiki, xodimlar boshliqning laqabiga ishora qilishyapti. "Baqiroq", "Yantoq" bu so'zlar orqali yozuvchi boshliqning laqabiga yaqinlashtiradi, ammo uning laqabini ochiq oydin aytmaydi. Shuningdek, shu suhbatning o'zidayoq xalq maqoliga ham duch kelamiz: "Notavon ko'ngilga qo'tir jomashov". Ushbu maqol suhbatdoshlar haqida yanada aniqroq tasavvur qilishimizga yozrdam beradi. Kasbdoshlar darrov Rahmatillaga ham laqab topishga shoshilishadi. Bu Rahmatillaga biro yoqmaydi.

Yana bir suhbatda yozuvchi endi boshqa xodimlarning laqabi xususida so'z yuritadi: "E, Qo'shoqvoy aka, qovurg'a bo'lsa ham go'rga-ya sizga o'zingizning go'shtingizni bermay, Abduhalimning go'shtini berib yuborishi ham hech gap emas.

Hammamiz kulib qotib qoldik. Chunki, Qo'shoqvoy akaning laqabi qo'y, texnigimiz Abduhalimniki echki edi-da". [4] suhbatdan ma'lum bo'ladiki, korxonada hammaning laqabi bor, ammo yozuvchi hali hamon boshliqning laqabini ochiq olmaydi. Keyingi suhbatda yana uning laqabiga ishora qiladi: "Zo'rg'a dumi yerga tegib, qovog'i ochilganda kayfiyatini buzib qo'ymang". Bitta gapning o'zida 3 ta ibora qo'llaniladi va bu kitobxonga estetik zavq bag'ishlaydi. Yozuvchi iborani aynan keltirmaydi, aksincha faqat bir qismini qo'llaydi. "zo'rg'a dumi yerga tegib"... Zukko kitobxon bu ishoradan gap "Tuyaning dumi yerga tekkanda" iborasi haqida gap ketayotganini angelaydi. Hali yozuvchi boshliqning laqabini aytmasidan uning laqabi haqida tushunchaga ega bo'ladi. "Qovog'i ochilmoq", "kayfiyatini buzmoq" iboralari esa hikoya mazmunini yanada boyitadi.

Habib Siddiq hikoya so'ngidagina kitobxonga boshliqning laqabini ochiq qo'llaydi: "Boshliqning xonasidan sal yengil tortib chiqdim, hayriyat-e deb joyimga o'tirdim. "O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir" deganlaricha bor ekan-da? Bir og'iz gapga shunchalik. Bo'lmasa, men chindan mutlaqo bexabar edim.

"Nimadan bexabar eding? " deysizmi?..

Bo'lim boshlig'imizning laqabi "Baqiroq tuya" ekanligidan-da". Hikoya shu yerda yakuniga yetadi va kitobxon yuqorida keltirilgan ishoralar sababini angelaydi. Adib bir nechta iboralar, maqollar orqali kitobxonni hikoya so'ngiga qadar zeriktirmasdan olib boradi. Kitobxon hayoli bo'linmay hikoya oxiriga qadar voqealar rivojini kuzatib boradi va asar so'ngida yuzida tabassum paydo bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko'ra, xalq og'zaki ijodi namunalari yozma adabiyotning, xususan, o'zbek hajviy prozasining g'oyaviy-badiiy saviyasini yuksaltirishda beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchi Habib Siddiqning "Tuya" hikoyasi tahlili misolida, adibning folklorizmlardan faqatgina bezak elementi sifatida emas, balki asar syujetini harakatlantiruvchi, personajlar xarakterini ochib beruvchi va kitobxonda estetik zavq uyg'otuvchi asosiy tarkibiy qism sifatida foydalanganligi ko'rsatib berildi.

Hikoyada qo'llanilgan maqol va barqaror birikmalar badiiy kontekstda oddiy folklorizm hodisasini yuzaga keltirgan bo'lsa, xalqona laqablar tizimi asarning komik tabiatini to'liq ta'minlashga xizmat qilgan. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda an'anaviy folklor janrlari (maqol, ibora) bilan bir qatorda, odatda mustaqil janr sanalmaydigan laqab qo'yish an'anasi (etnolingvistik hodisa) ham yozma adabiyotda o'ziga xos folklorizm unsuri sifatida baholandi. Muallifning bosh qahramon va boshliq obrazlari o'rtasidagi muloqotni iboralar silsilasi yordamida, sirli va intonatsion jihatdan boy tasvirlashi uning o'ziga xos hajvchilik mahoratidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Habib Siddiq. Chirog'i yoniq xonadon. Toshkent. 2013
2. Z. Masharipova. O'zbek yozma adabiyotida folklor an'analari. (o'quv qo'llanma). Toshkent.2008
3. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent.2006
4. Mamayusupova Saodat .Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmning o'rni. Dissertatsiya. Jizzax. 2024.
5. Ёрмагов И. Стилизация характеридаги фольклоризмлар. Ўзбек адабиёти, 1984.3, 31-35.
6. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o'zbek she'riyatida folklorizm. Toshkent: Fan. 2011
7. Sharipova L. She'riyat va folklor. Toshkent: Navro'z.2019
8. Sharopova N. Og'zaki lirika janrlariga murojaat etish tamoyili. O'zbek tili va adabiyoti. 1988. 2 28-32.